

## CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA BO'LGAN EHTIYOJNI QONDIRISH MANBAI

**Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti 1b-22 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mazmuni, unda qishloq xo'jaligining chorvachilik sohasining ahamiyati yoritib o'tilgan. Shuningdek, mamlakatimizda chorvachilik sohasidagi mahsulot hajmi ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Sohoni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ayrim muammolar va sohani rivojlantirish borasidagi tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, nobarqaror vaziyat, oziq-ovqat xavfsizligi, xo'jalik toifalari, zamonaviy xorij tajribalari, raqamlashtirish, innovatsiyalar

### KIRISH

Oxirgi ikki yilda jahonda oziq-ovqat inflyatsiyasi yiliga 15-20 foizdan pasaymayotgani, o'simlik yog'i, sut va go'shtning jahon narxi so'nggi 30 yildagi, don mahsulotlari va shakar esa so'nggi 10 yildagi eng yuqori darajaga ko'tarilgan. Eksport-importda logistika, o'g'it va yoqilg'i xarajatlari oshib ketgani ham oziq-ovqat narxlariga o'z ta'sirini ko'rsatayпти. Tahlillarga ko'ra, bu holat kelgusi yillarda ham saqlanib qoladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YaIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi [4].

Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'idir.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga 200 ming gektar yer ajratilgani, 500 ming gektar qo'shimcha yerlar oborotga kiritilgani ichki bozordagi narx-navoni barqaror ushlab turish va eksportni ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Lekin, aholimiz soni o'sib borayotgani, jahondagi nobarqaror vaziyat, logistikadagi uzilishlar oziq-ovqatni ko'paytirish bo'yicha oldimizga yanada katta vazifalarni qo'ymoqda[1].

Bugungi kunda O'zbekiston reytinglarda «Iqtisodiy foydalana olish imkoniyati» kategoriyasi bo'yicha 18 o'ringa, «Sifat va xavfsizlik» kategoriyasi bo'yicha 3 o'ringa, «Barqarorlik va moslashish» kategoriyasi bo'yicha 36 o'ringa ko'tarilgani e'tirof etilmoqda[3].

O'zbekistonning reytingdagi o'rnini yanada yaxshilash uchun ichki bozorda oziq-ovqat turlarini ko'paytirish, import ta'minotini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism**

Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi islohotlar yanada chuqurlashtirilgan ekan, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish - bo'yicha dasturlar ijrosi o'z samarasini bermozda.

Jumladan, industrial jihatdan tarmoqlarni modernizatsiya qilish orqali hududlarning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish va xorijiy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni sohalarga jadal tatbiq qilinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan oshirishdir.

Yalpi ichki mahsulot oshishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi asosiy xom ashyo yetishtirib beruvchi sohasi hisoblanadi [11].

Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirib beruvchi sohasidan biri bo'lgan chorvachilik sohasida mahsulotlar yetishtirib berish hajmi ortib bormozda.

Respublikamizda chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida respublikadagi barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 833,3 ming tonna go'sht, 11 968,7 ming tonna sut, 8 487,5 mln.

dona tuxum yetishtirildi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sog'ib olingan sut – 102,9 % ni, olingan tuxum – 104,4 % ni tashkil qildi [17].

**1-jadval**

**2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**

Mahsulot turlari	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		fermer xo'jaliklari	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	2 833,3	103,9	179,0	105,1	2 406,6	102,0	247,7	126,6
Sut	11 968,7	102,9	706,7	112,2	11 104,7	102,2	157,3	116,0
Tuxum, mln. dona	8 487,5	104,4	1 329,8	111,0	4 912,8	102,2	2 244,9	105,6

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 5,9 % i fermer xo'jaliklari, 92,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 14 142,4 ming boshga yetdi, (2023 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan 2,1 % ga ko'p), sigirlar 5 046,3 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 24 118,3 ming boshga (2,2 % ga ko'p), otlar 275,9 ming boshga (2,6 % ga ko'p), parrandalar 103 046,5 ming boshga (5,8 % ga ko'p) yetdi [17].

**2-jadval**

**2024 yil 1 yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va  
parrandalar bosh soni**

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	14 142,4	102,1	1 031,8	107,2	12 845,1	101,6	265,5	107,8
<i>shundan,</i> sigirlar	5 046,3	101,8	410,1	106,5	4 541,9	101,3	94,3	106,2
Qo'y va echkilar	24 118,3	102,2	3 735,2	105,4	18 700,5	101,5	1 682,6	102,8
Otlar	275,9	102,6	68,4	106,6	189,9	100,9	17,6	106,0
Parrandalar	103 046,5	105,8	18 479,1	112,9	49 922,1	100,7	34 645,3	110,3

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,1 % i fermer xo'jaliklariga, 90,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,5 % i fermer xo'jaliklariga, 77,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlarning umumiy sonidan 24,8 % i fermer xo'jaliklariga, 68,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 17,9 % i fermer xo'jaliklariga, 48,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 33,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi [17].

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, Respublikada yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh son 14 142,4 ming boshga yetdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh soni – 288,9 ming boshga (2,1 %) ko'paydi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada sigirlarning umumiy bosh soni 5

046,3 ming boshga yetdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar umumiy bosh soni – 89,8 ming boshga (1,8 %) ko'paydi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 24 118,3 ming boshga yetdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar umumiy bosh soni – 515,8 ming boshga (2,2 %) ko'paydi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada otlarning umumiy bosh soni 275,9 ming boshga yetdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar umumiy bosh soni – 6,9 ming boshga (2,6 %) ko'paydi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, otlar umumiy bosh soni 2023 yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 6,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,9 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,0 % o'sish kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra sohada yechimini kutayotgan va sohani rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ayrim muammolar bo'lib, ularga quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin - sohani boshqarishda samarasiz qarorlarni qabul qilish [2], tadbirkorlik korxonalarida boshqarishni tashkil etishda zamonaviy xorij tajribalarini o'rganish va qo'llash darajasining pastligi [13,15], ilg'or tajribalarni o'zlashtirishda mavjud imkoniyatlardan foydalanmaslik [14], resurslardan samarali foydalanmaslik [16], raqamli iqtisodiyotga o'tishdagi muammolar [9], raqamlashtirish jarayonlaridagi to'siqlar [10,12], ichki va tashqi axborot ta'minotining qoniqarsizligi [6], mahsulotlar eksportini tashkil etish jarayonlaridagi kamchilik va muammolar [5,8], innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llashdagi muammolar [7].

### **Xulosa va takliflar**

Umumiy qilib aytganda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy soha hisoblangan qishloq xo'jali va uning chorvachilik yo'nalishida unumdorlikni oshirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqazo etadi. Butun yil mobaynida ham oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan, ham narxlarning mavsumiy o'zgarib turishini pasaytiradigan mexanizm ishlab chiqish, samarali usullarini tatbiq etish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

SHuningdek sohani rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: yangi zotdor nasllarni ko'paytirish; resurslardan samarali foydalanish; tashqi ta'sirlarga moslashuvchanlikni oshirish yo'llarini ishlab chiqish va qo'llash; davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash va investitsiyalar yo'naltirish ishlarini kuchaytirish; mahalliy sharoit va fermerlarning ehtiyojlariga mos keladigan tegishli jamoaviy dasturlarni amalga oshirish; kichik xo'jaliklarning siyosat jarayonlarida ishtirokini rag'batlantirish; yuqori sifatli o'quv dasturlari va axborot bilan ta'minlash va boshqa shu kabilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Шавкат Мирзиёев айрим туманлар асосий озиқ-овқат маҳсулотлари билан ўз-ўзини таъминлай олмаётганини танқид қилди. <https://daryo.uz/k/2023/03/23/shavkat-mirziyoyev-ayrim-tumanlar-asosiy-oziq-ovqat-mahsulotlari-bilan-oz-ozini-taminlay-olmayotganini-tanqid-qildi>
2. Dedajanov, B. N. (2022). *Menegment. Darslik.*—Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
3. Шарипов Қ. Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
4. **Холмуратов Р. ва бошқалар.** Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш – давр талаби. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>.
5. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
6. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
7. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.
8. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR

ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Пут в науку*, (3), 92-103.

9. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). RAQAMLI IKTISODIYET: AFZALLIKLARI VA XATARLARI. *Markaziy Osiyo Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnal*, 2(01), 153-159.

<https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

10. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). THE DIGITAL ECONOMY: ADVANTAGES AND RISKS. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 153-159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

11. Nabijanovich, D. B., & qizi, D. X. B. (2024). Oziq-Ovqat Va Qishloq Xo'jaligini Barqaror Rivojlantirish Omillari. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 25-28. Retrieved from

<https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/view/844>

12. Ubaydullayev, L. X., & Dedajanov, B. N. (2021). Raqamli iktisodiyet: afzalliklari va xatarlari. *Markaziy Osiyo Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnal*, 2 (01), 153-159.

13. Dedajanov Bahtiyor Nabijanovich, Nabiev Bobur Muxammadkosim o'g'li FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES <https://naukaip.ru/wp-content/uploads/2021/05/%D0%9C%D0%9A-1109.pdf#page=17>

14. Dedajanov, B. N. (2021). FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES. In ЭКОНОМИКА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ (pp. 17-20).

15. Dedajanov, B. N., & Kholmiraeva, K. H. (2021). Managerial Effectiveness: Content, Evaluation and Recommendations. *Account and Financial Management Journal*, 6 (5), 2318-2323.

16. [https://www.fao.org/fileadmin/user\\_upload/hlpe/hlpe\\_documents/HLPE\\_S\\_and\\_R/HLPE\\_2016\\_Sust-Agr-Dev-FSN-Livestock\\_S-R\\_RU.pdf](https://www.fao.org/fileadmin/user_upload/hlpe/hlpe_documents/HLPE_S_and_R/HLPE_2016_Sust-Agr-Dev-FSN-Livestock_S-R_RU.pdf)

17. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>